

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “QISH” SHE’RIDA RAD ETILGAN MUHABBAT VA QISH MANZARASI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Hayotda shunday paytlar bo‘ladiki, birgina so‘z inson qalbidagi bo‘ronni tindiradi, uning hayotini o‘zgartirib yuboradi. Ba‘zan bu so‘z cheksiz quvonch olib keladi, ba‘zan esa yurakni yuzlatib, zulmat qariga ulotiradi. Muhabbat inson hayotidagi eng nozik, eng yuksak bir paytning o‘zida eng og‘riqli tuyg‘ulardan biridir. U ko‘ngilni parvozga chorlaydi, go‘zal orzular va kuchli umid uyg‘otadi. Ammo mana shu muhabbat rad etilsa, yurak o‘z-o‘zida muzga aylanadi, inson ichki dunyosida qish kabi sovuq bir fasl hukm surishni boshlaydi. Ana shunday sovuq ruhiy faslni tasvir etmoqlikda qish manzarasi nihoyatda kuchli ramziy vositaga aylanadi. Aleksandr Arkadevich Faynberg she‘riyatida inson qalbida ro‘y berayotgan hodisalar ko‘pincha tashqi olamdagi real manzaralar bilan uyg‘unlashib ketadi. Shoir ko‘p hollarda tabiatni shunchaki fon sifatida qo‘llamaydi, u tabiat vositasida ruhiy holat aks-sadosini yaratadi. Qor, shamol, muz, sovuq singari elementlar uning ijodiyotida oddiy manzara emas, ular qalbning muzga aylanishi, tuyg‘ularning qotib qolishi, umidning bexosdan so‘nishini ko‘rsatib beruvchi badiiy qurollardir. Ayniqsa muhabbat va ayriliq mavzulari yoritilgan she‘rlarda tabiat va ruhiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Adabiyotda qish fasli ko‘pincha ruhiy og‘irlik, hayotiy sinov yoki ichki bo‘shliq bilan bog‘lanadi. Oppoq qor tashqi tomondan maftunkordek ko‘rinsa ham, uning ostida sovuq va jimjitlik yashiringan bo‘ladi. Shu ma‘noda ham qish inson qalbining ham ayrim holatlariga o‘xshaydi. Tashqi sokinlik ortida esa chuqur alam yashashi mumkin. Faynberning “Qish” she‘ri ham aynan mana shunday ruhiy muhitni tasavvur qilish imkonini o‘quvchiga yaratib beradi. Unda sevgining rad etilishi va ichki kechinmalar bilan aloqador umumiy kayfiyat ruhi sezilib turadi. Asar o‘quvchini sovuq faslning manzaralari inson ko‘nglidan kechadigan og‘ir lahzalar haqida mulohaza yuritishga da‘vat etadi. Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning yuqorida ta‘kidlangan “Qish” she‘ri tahliliga bag‘ishlanadi.

Abstract: There are times in life when a single word calms the storm in a person's heart and changes his life. Sometimes this word brings boundless joy, and sometimes it turns the heart upside down and plunges it into darkness. Love is one of the most tender, highest and at the same time the most painful feelings in a person's life. It calls the soul to flight, awakens beautiful dreams and strong hopes. But if this

love is rejected, the heart turns to ice by itself, and a cold season like winter begins to reign in a person's inner world. In depicting such a cold spiritual season, the winter landscape becomes an extremely powerful symbolic tool. In the poetry of Alexander Arkadyevich Feinberg, the events taking place in the human soul often harmonize with real landscapes in the external world. In many cases, the poet does not use nature simply as a background; he uses nature to express his spiritual state. creates an echo. Elements such as snow, wind, ice, and cold are not just scenes in his work; they are artistic tools that show the heart turning into ice, the hardening of feelings, and the involuntary fading of hope. Especially in poems that cover the themes of love and separation, the harmony between nature and the soul is clearly visible. In literature, the winter season is often associated with spiritual heaviness, life trials, or inner emptiness. Although white snow may seem charming from the outside, cold and silence are hidden beneath it. In this sense, winter is also similar to some states of the human soul. Behind the external calm, deep suffering can live. Feinber's poem "Winter" creates the opportunity for the reader to imagine exactly such a spiritual environment. In it, the general mood associated with the rejection of love and internal experiences is felt. The work invites the reader to reflect on the difficult moments when the scenes of the cold season pass through the human soul. This article is devoted to the analysis of the above-mentioned poem "Winter" by Alexander Arkadevich Feinberg.

Аннотация: В жизни бывают моменты, когда одно-единственное слово успокаивает бурю в сердце человека и меняет его жизнь. Иногда это слово приносит безграничную радость, а иногда переворачивает сердце с ног на голову и погружает его во тьму. Любовь — одно из самых нежных, высших и одновременно самых мучительных чувств в жизни человека. Она призывает душу к бегству, пробуждает прекрасные мечты и сильные надежды. Но если эта любовь отвергнута, сердце само застывает во льду, и в внутреннем мире человека начинает царить холодная пора, подобная зиме. В изображении такой холодной духовной поры зимний пейзаж становится чрезвычайно мощным символическим инструментом. В поэзии Александра Аркадьевича Файнберга события, происходящие в человеческой душе, часто гармонируют с реальными пейзажами внешнего мира. Во многих случаях поэт использует природу не просто как фон; он использует природу для выражения своего духовного состояния. Она создает отголосок. Такие элементы, как снег, ветер, лед и холод, — это не просто сцены в его творчестве; Это художественные средства, показывающие превращение сердца в лед, ожесточение чувств и произвольное угасание надежды. Особенно в стихах, затрагивающих темы любви и разлуки, отчетливо видна гармония между природой и душой. В литературе зима часто ассоциируется с духовной тяжестью, жизненными испытаниями или внутренней пустотой. Хотя белый снег может казаться очаровательным снаружи, под ним скрываются холод

и тишина. В этом смысле зима также похожа на некоторые состояния человеческой души. За внешним спокойствием может жить глубокое страдание. Стихотворение Файнберга «Зима» дает читателю возможность представить именно такую духовную среду. В нем ощущается общее настроение, связанное с отвержением любви и внутренними переживаниями. Произведение приглашает читателя поразмышлять о трудных моментах, когда сцены холодного времени года проходят через человеческую душу. Данная статья посвящена анализу вышеупомянутого стихотворения «Зима» Александра Аркаевича Файнберга.

Kalit so‘zlar: qish fasli, rad etilgan muhabbat, sevgining rad etilishi, ichki iztirob, ruhiy iztirob, yolg‘izlik, g‘urur, kamsitilish, alam, umidsizlik, qalb muzlashi, ichki bo‘shliq, tabiat ramzi, sovuq manzara, muz, qor, fasl timsoli, inson ruhiyati, ichki monolog, lirik qahramon, hissiy dramatism, fojiviy sevgi, inson kechinmalari, ruhiy sinov, tabiat va ruhiyat uyg‘unligi, badiiy tasvir, iztirobli muhabbat, sukut va jimjitlik, qalb iqlimi, lirizm, badiiy ramz, insoniy kechinmalar, sevgining murakkabligi.

Keywords: winter, rejected love, rejection of love, inner anguish, spiritual anguish, loneliness, pride, humiliation, pain, despair, freezing of the heart, inner emptiness, symbol of nature, cold landscape, ice, snow, symbol of the season, human psyche, inner monologue, lyrical hero, emotional drama, tragic love, human experiences, spiritual test, harmony of nature and spirit, artistic image, painful love, silence and stillness, climate of the soul, lyricism, artistic symbol, human experiences, complexity of love.

Ключевые слова: зима, отвергнутая любовь, отвержение любви, внутренние муки, духовные муки, одиночество, гордость, унижение, боль, отчаяние, замерзание сердца, внутренняя пустота, символ природы, холодный пейзаж, лед, снег, символ времени года, человеческая психика, внутренний монолог, лирический герой, эмоциональная драма, трагическая любовь, человеческий опыт, духовное испытание, гармония природы и духа, художественный образ, мучительная любовь, тишина и покой, душевный климат, лиризм, художественный символ, человеческий опыт, сложность любви.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Qish” she’ri shoir badiiy mahorati va lirizmi yordamida inson qalbida kechuvchi eng og’ir lahzalar o’zining badiiy ifodasini topgan beqiyos asarlarda hisoblanadi. She’r markazida inson qalbiga ozor berishdan hech to’xtamayotgan rad etilgan muhabbatga nisbatan iztirob, ichki sinovlar va ruhiy og’riqlar turadi. Faynberg o’zining mazkur asari orqali muhabbat faqat go’zal, insonga orzu qilish, umid qilish uchun ilhom beradigan tuyg’u emas, ba’zida bu shirin tuyg’u ortidan insonni ruhan kemiruvchi, og’ir va fojiviy asoratlarga olib keluvchi voqealar, hissiyotlar kelishi mumkin ekanligini tushuntiradi.

QISH

“Yo‘q!” – dedimi – demak, yo‘q,
 Sevgi tilamam zinhor.
 So‘qmoq. Qahraton sovuq,
 Tizzamgacha kelar qor.
 O‘rmon. Chilla. Naqadar
 g‘avg‘o to‘kdi gapxalta.
 Oh-h!
 Bo‘yniga qadar
 muzga botdi oybolta.
 “Yo‘q!” – deding-a?!
 Qoyil! Zo‘r!
 Boqdim ko‘lning sirti muz.
 Dante-Beatriche – ishq sho‘r.
 O‘ldirding meni beso‘z.
 Bundan ham badtar dard-g‘am.
 Ko‘nglim – kimsasiz kulba.
 Menga farqi yo‘q, sanam,
 Kimga aylading jilva.
 Parvoyim yo‘q bu holga,
 Uyga kiraman yolg‘iz.
 Bolta otaman polga,
 Jaranglaydi sovuq muz.
 Badjahlman, o‘r, paxmoq,
 It tirnagandek ichim.
 “Izingdan borgan – ahmoq!” –
 Gulxanga boqaman jim.
 Egnida momiq buyum,
 Oynakdan boqadi qish.
 Oppoq qor uyum-uyum –
 G‘aram-g‘aram siym, kumush.

She‘r boshida keskin va qat‘iyat bilan qo‘llanilgan “Yo‘q!” so‘zi orqali rad etilish voqeasi darhol ma‘lum bo‘ladi. Bu birgina so‘z emas, balki qalbni muzlatadigan hukm, tuyg‘ularni so‘ndiradigan zarba hamdir. Shu voqeadan boshlab she‘r lirik qahramonning qalbini, ichki olamini sovuqlik, g‘urur va yolg‘izlik qamrab oladi. Qahramonning ruhiy iztirobi tabiat manzarasi bilan ham uyg‘unlashib boradi: tizzagacha kelgan qor, muzlagan ko‘l, oppoq o‘rmon, chilla va sovuq-bular tashqi tasvir bolibgina qolmay inson qalbining muzlashi va tuyg‘ularning qotishini ramziy ma‘noda ochib beradi.

She'rd a sevgining fojeaviy holati ham yaqqol namoyon bo'ladi. Qahramonning sevgisi rad etilgan va shu sababli u ich-ichidan ezilib ketmoqda. Faqat ezilish emas, u bilan birga alam, g'urur ham unga tinchlik bermayapti. Uning ichki monologida kamsitilish, iztirob, yog'izlik va ruhiy bo'shliq kabi kechinmalar mavjud. Shu bilan bir qatorda qor, muz, oppoq o'rmon singari ramziy tasviriy vositalar she'rga tabiat uyg'unligini baxsh etgan. Bu uslubning qo'llanishi o'quvchiga qahramon ichida kechayotgan holatni tasavvur qilishga, nafaqat tasavvur qilish, balki his qilishga ko'maklashadi

She'rning badiiy uslubi qisqa, keskin va ritmik satrlardan iborat bo'lib, qahramonning ruhiy holatiga yanada dramatic tus beradi. Har bir so'z unga zarba kabi ta'sir o'tkazaveradi, har bir berilgan tasvir ko'nglida kechayotgan iztirob tuyg'usi nechog'liq jiddiy ekanini ifoda etadi. Faynberg muhabbat, g'urur, alam, ichki yolg'izlik va sovuq fasl timsollarini uyg'unlashtirib inson ruhiyatining naqadar murakkab ekanligini o'quvchiga ko'rsatib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'ri uni qanchalik kuchli mahorat egasi ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. "Qish' she'ri muhabbatning rad etilishi, inson qalbining iztiroblari, ruhiy sovuqlik va yolg'izlikning badiiy ifodasidir. Shoir tabiat manzaralarini metafora va ramz sifatida ishlatib, o'quvchini inson kechinmalari bilan tanishtiradi va shu orqali ruhiy mushohada uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. ziyouz.com
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
5. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Turon zamin ziyo.
6. Rasulov A. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr.